

“Tasdiqlayman ”
 Toshkent viloyat
 Angren shahar
 Maktabgacha ta’lim
 bo’limi mudiri:
 Nuriddinov S.R.
 “08” 11 2022 yil

Eng yaxshi taklifni tanlash bo‘yicha

Xarid qilish hujjatlari

(Zahira mahsulotlarini etkazib berish ishlarni olib borish uchun o‘tkazilayotgan tanlov uchun)

1. Tanlov o‘tkazish uslubi	Ball uslubi (eng yaxshi taklif tanlovi) uchun ishtirokchilar tomonidan elektron tarzda https://etender.uzex.uz/ portali orqali taqdim qilingan xujjalarning texnik va narx qismlari komissiya a’zolari tomonidan sifat va ishonchliligi o‘rganilib baxolanadi, eng yuqori ball to‘plagan ishtirokchi g’olib buladi.
2. Ishtirokchilar tomonidan takliflarni qabul qilish muddati	Ushbu e’lon portalga joylashtirilgan kundan boshlanib, portalda tugashi belgilangan sana va vaktgacha
3. Tanlash xujjalarni tayyorlash tili	O‘zbek tilida va rus tilida
4. Bog‘lanish uchun aloqa malumotlari	Toshkent viloyat Angren shahar Yoshlik ko’chasi 21 uy Telefon nomer: +99899-862-44-69
5. Buyurtmachi manzili	Toshkent viloyat Angren shahar Yoshlik ko’chasi 21 uy

Asosiy talablar

T/r	Talab nomi	Tasdiqlovchi xujjat
1	Tashkilotning Davlat idoralari ro'yxatidan o'tkazilaganligi haqidagi guvohnoma mavjudligi	Guvoxnama nusxasi
2	Tashkilotda faoliyat yurituvchi xodimlar soni (F,I,SH, lavozimi xamda ish tajribasi xaqida to'liq malumot, QR kodi bilan)	Ma'lumotnama QR kodi bilan)
3	Tanlov ishtirokchisining ish xaqi jamg'armasi va xodimlar o'rtacha soni bo'yicha ko'rsatkichlari (soliq qo'mitasidan malumotnomma)	Soliq qo'mitasidan malumotnomma
4	Zaxira mahsulotlarini o'z vaqtida tugallash uchun zahirasi mavjudligi va texnika (maxsulotlarni saqlash uchun muzlatgich) bilan ta'minlanganligi	Ma'lumotnama tasdiqlangan holda asl nusxasi taqdim etilsin
5.	Yetkazib beruvchi korxona tomonidan buyurtmani olgandan so'ng, talabnomma asosida havftalik mahsulotlarni dislokatsiyada ko'rsatib o'tilgan manzillarga o'z vaqtida olib kelishi to'g'risida yozgan kafolat xati shartligi	kafolat xati
6.	Soliq organidan soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida malumotnomma mavjudligi	Malumotnomma olinganiga bir oydan oshmagan bo'lishi kerak
7.	Bankdan kartotekada turmasligi tug'risida hamda taqdim etilgan taklif summasining 50% miqdorida qoldig'I mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarning asl nusxasi taqdim etilish kerak	Ma'lumotnomma olinganiga bir oydan oshmagan bo'lishi kerak
8.	Korxona tomonidan buyurtmani olgandan so'ng mahsulotni olib kelib-topshirish ishlarini bajarish bo'yicha oferta va tijorat taklifi	Umumiyl ishlab chiqish grafigi
9	Zaxira bilan shug'ullangani to'g'risida to'liq tasdiqlangan ma'lumot (oxirgi uch yillik ma'lumot)	Asoslovchi hujjat
10	Tanlov ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'yilmasligi bo'yicha kafolat xatining mavjudligi	Kafolat xati

Taklifni rasmiylashtirishga doir talablar.

Ishtirokchilar o‘z takliflarini elektron ko‘rinishda <https://etender.uzex.uz/> portaliga elektron tanlovlari o‘tkazish uchun joylashtirishi lozim.

Takliflarni baholash me’zonlari va ko’rib chiqish tartibi

Ishtirokchilar qo’yilgan talablar uchun taqdim qilgan xujjatlariga, ya’ni texnik qismining miqdoriy ko’rsatkichlariga va narx qismining miqdoriy ko’rsatgichlari uchun umumiy 100 ball to‘plashlari mumkin.

Eslatma: Texnik qismidagi birorta talab qilingan xujjatlar to’liq biriktilmasa, ishtirokchilar tanlovdan diskvalifikatsiya qilinadi. Bundan tashqari xar bir talab alohida balli ko‘rinishida belgilangan.

Ishtirokchilar bilan hisob-kitob tartibi.

G‘olib bilan hisob-kitob milliy valyuta (so‘m) da amalga oshiriladi. Tanlov g‘olibiga shartnoma qiymati bir milliard so‘mgacha bo‘lsa 30%, undan yuqori bulgan taqdirda 15% (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 16 martdagи 139-sonli qaroriga asosan) miqdorda oldindan to’lov o‘tkazib beriladi. Qolgan mablag‘ g‘olib tashkiloti tomonidan tanlovga quyilgan maxsulotni 100% talab qilingan manzilga etkazib bergandan so’ng hisob fakturasi asosida o‘tkazib beriladi.

Angren shahar MTB mudiri:



Nuriddinov S.R.

Oziq ovqat hisobchisi:



Madraimova S.P

Oziq ovqat hisobchisi:



Ergasheva D.

Metodik ishlar bo'yicha mutaxassis:



Imomnazarova G.

Kadrlar bo'yicha mutaxassis :



Saipova B.

Iqtisodchi:



Namazbayeva M.

Ta'minotchi:



Eshbayev M.

NUQSON DALOLATNOMASI

Angren shahar

08.11.2022 yil

“Angren shahar MTB ga qarashli DMTT lariga asosiy turdag'i qishloq xo'jalik mahsulotlarini qish - bahor mavsumi uchun zahiraga qo'yish (zakladka) uchun shartnomalar tuzish to'g'risida”

Biz quyida imzo chekuvchi komissiya a'zolari Angren shahar MTB mudiri S.R.Nuriddinov, iqtisodchi M.A.Naimazbayeva, oziq ovqat hisobchisi S.P.Madraimova, oziq ovqat hisobchisi D.A.Ergasheva, mutaxassis B.Saianova, mutaxassis G.M.Imomnazarova, ta'minotchi M.A.Eshbayevlar ishtirokida ushbu dalolatnomani tuzildi.

Dalolatnomalar shu haqidaki Angren shahar MTB ga qarashli DMTT larida 2022-2023 yil asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qish-bahor mavsumi, zahira (zakladka) mahsulotlarini sotib olish va shartnomalar imzolash uchun Angren shahar xokimining 2018 yil 26 martdag'i 51-F sonli Farmoyishiga muvofiq doimiy ishchi guruh tomonidan shahar hududidagi savdo majmualaridan olingan ma'lumotlar asosida ijtimoiy muhim turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarining joriy yilning 1 noyabr sanasidagi solishtirma dalolatnomasiga asosan mahsulotlarning narx-navo ma'lumotlari o'rganib chiqildi. O'rganish jarayonida qish-bahor mavsumi, zaxiraga qo'yish (zakladka) uchun kartoshka o'rtacha narxi 3 700 so'mdan 4 700 so'mgacha, piyozning o'rtacha narxi 3 600 so'mdan 4 000 so'mgacha, sabzi o'rtacha narxi 3 700 so'mdan 4 200 so'mgacha, guruch o'rtacha narxi 11 000 so'mdan 12 000 so'mgacha ekanligi aniqlandi:

Kartoshka sifatiga qo'yiladigan talablar qo'yidagilardir. Tuganak yetilgan, sog', butun, quruq, toza, o'simtasiz bo'llishi, ertagi kartoshka uchun uzunlik diametri kamida 3 sm va kechkisi uchun 5 sm bo'llishi lozim.

Iste'mol uchun ishlataladigan bosh piyozlar pishgan, sog'lom, butun, quruq. Shakli va rangi shu botanik navga xos, sirtqi po'stlog'i yaxshi qurigan, bandi 2-5 sm qoldirib qirqilgan va yaxshi qurigan bo'llishi lozim. Yassi shaklli piyoz boshlarining o'lchami eng katta diametri bo'yicha 3 sm dan kam bo'lmasligi, boshqa shaklli piyozlarning o'lchami esa 4 sm dan kam bo'lmasligi lozim.

Sara sabzi quruq, so'limgan, kasallanmagan, butun, yorilmagan toza, hasharot tegmagan, shakli va o'lchami bir xil, kamida 2 sm uzunlikdagi poyali bo'llishi lozim. Sabzining ko'ndalang kesimi diametri 2,5-6,0 sm keladigan bo'llishi kerak. Chirigan, dimiqqan, yaxlagan, begona ta'm va hidli sabzilarni ishlatishga yo'l qo'yilmaydi.

Guruchning rangi oq rang, guruchning namligi uzoq saqlash uchun 14%, kundalik iste'mol uchun 15,5 % bo'llishi shart, guruch quruq, yorug', toza, yaxshi shamollataladigan omborlarda 0° dan 8°S gacha haroratda 60-70% nisbiy namlikdagi havoda saqlanadi, yormani minus temperaturada ham saqlash mumkin. Ammo temperaturaning keskin o'zgarib turishiga sira yo'l ko'yilmaydi. Bug'doy, qora bug'doy va arpa yormalari uzoq vaqt saqlana oladi. Tarik, suli va makkajo'xori yormalari esa uzoq saqlana olmaydi, chunki ularda tez achiydigan yog' bor. Yil fasli va qayerda joylashishiga qarab yorma va dukkanlarga ekinlarga tabiiy kamayish normasi (0,25-0,30%) belgilangan. Kartoshka uzoq saqlanganda ombordagi harorat va havo nisbiy namligining o'zgarishi (dekabr'-aprel' oylarida, foiz hisobida)

Saqlash usuli	Harorat gradus	Namlik %
Yerto'lada saqlash	8-10,3	81-94
Yer to'lada faol ventilyatsiya qo'llanilganda	2,3-5,8	76-84
Sun'iy sovutiladigan, radiatorli omborlarda	2,1-1,7	95-98
Sun'iy sovutilib, havo bilan shamollataladigan omborlarda	12-1,9,7	93-98

Sabzavotlarni saqlash tartibi

Sabzavotlar	Saqlashning muqobil harorati	Havoning nisbiy namligi (foiz)	Saqlash muddatlari (oy hisobida)
Sabzi	0	90-95	5-8
Bosh piyoz	-1-0	80 гача	6-9

Angren shahar MTB tomonidan 4 ta asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (kartoshka, piyoz, sabzi, guruch) xarid qilishda dehqon bozorlarida shakllanadigan o'rtacha narxlardan kelib chiqqan holda, bahor mavsumi uchun zaxiraga qo'yish (zakladka) uchun quyidagi qishloq xo'jalik mahsulotlari quyidagi narxda davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga joylashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.